

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Son 8 Jild 4  
**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 8 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Бегамова Насиба Холмурзаевна</i> МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА АГРАР СОҶА ХОДИМЛАРИНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РОЛИ (ЎЗБЕКИСТОН ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАРИ МИСОЛИДА) .....	11-19
<i>Насиратдинов Сапар Жеткербай-улы</i> ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРДА ФОТОГРАФИЯНИНГ ЎРНИ .....	20-25
<i>Нарманов Феруз Асфандиёрович</i> ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ ҲАЁТИ ВА ФАОЛИЯТИНИНГ ЎҚИТИЛИШИ .....	26-30
<i>Rustamov Ixomidin</i> “O‘ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASI – XALQ STRATEGIYASI (YANGI O‘ZBEKISTON TARIXI) .....	31-34
<i>Normo‘minov Aziz</i> O‘ZBEKISTONLIK SPORTCHILARINING PARAOLIMPIYAMUSOBAQALARIDAGI ISHTIROKI .....	35-39
<i>Turdiboyeva Gulmira</i> VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGIGA QARSHI KURASH BO‘YICHA TARG‘IBOTLAR SAMARASI .....	40-44
<i>Xamidova Shoiria Rasulovna</i> PARASPORT TURLARI VA ULARNING QONUNIYATLARI .....	45-51
<i>Ахмедов Жасурбек Зокиржонович</i> МАДАНИЯТШУНОСЛИК ВА НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА .....	52-54

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Raximov To‘xtabek Jumaboyevich</i> KICHIK BIZNES KORXONALARINING EKSPORT SALONIYATINI OSHIRISHGA TA‘SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI .....	55-60
<i>Allaberganov Xushnud Allaberganovich</i> TASHQI SAVDO SALONIYATINING MINTAQA IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI .....	61-68
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ КОРИДОРЫ: СИНЕРГЕТИЧЕСКАЯ ВЫГОДА И ПОИСК РЕШЕНИЯ НЕПРОСТЫХ ЗАДАЧ .....	69-81
<i>Baqoeva Dilfuza</i> SANOAT KORXONALARIDA SOTUV TIZIMINING OLIV BORILISHI, MOHIYATI VA YO‘NALISHLARI .....	82-86
<i>Adilov Mirkomil Miralimovich</i> TIJORAT BANKLARI KREDIT QO‘YILMALARINING MANBALARINI ТАКОМИЛЛАСHTIRISH .....	87-93

<i>Donayev Sheroli Burxonovich</i> DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RIVOJLANTIRISH ASCENT STRATEGIYASINING AHAMIYATI .....	94-101
<i>Кахаров Жасур Абулқосимович</i> ГАСТРОНОМИЯ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	102-109
<i>Рахмонов Шухрат Шавкатович</i> ТУРИСТИК МАҲСУЛОТ ДИВЕРСИФИКАЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ .....	110-117
<i>Sherov Alisher Bakberganovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI .....	118-129
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna</i> MAHMUDXO'JA BEHBUDIY MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI VA ULARNING IJTIMOIIY- AXLOQIY MUNOSABATLARDAGI KONSTRUKTIV MOHIYATI .....	130-135
<i>Muhamedov Asror</i> G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR .....	136-145
<i>Aripova Zulfiyaxon Salijanovna</i> HOZIRGI ZAMONDA ETIKA VA ESTETIKANI O'QITISHNING AMALIYIJTIMOIY AHAMIYATI .....	146-151
<i>Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich</i> INSONNING TABIATGA NOOSFERAVIY MUNOSABATINI YUKSALTIRISH ZARURIYATI .....	152-156
<i>Xolmatov Uchqunjon Xamidullayevich</i> AXBORIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY TAHDIDLAR SHAROITIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA HAMJIHATLIKNI TA'MINLASHNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY VAZIFALARI .....	157-162
<i>Шоназаров Жамшид Шухратович</i> ЖАДИДЛАР ҒОЯЛАРИ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ БИЛАН ҲАМОҲАНГ .....	163-168
<i>Хо'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI AXBOROT URUSHI DAVRIDA MAFKURAVIY TAJOVUZLARDAN ASRASH OMILLARI .....	169-174
<i>Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li</i> MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR DIALEKTIKASIGA MADANIY HODISALAR SIFATIDA QARASH .....	175-179
<i>Muxtorova Tutixon</i> GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA FALSAFIY YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	180-186
<i>Rahmonova Mavluda Abdusamadovna</i> ABDURAUFI FITRATNING "OILA" ASARIDA JAMIYAT MA'NAVIY-AXLOQIY RIVOJIGA DOIR QARASHLARI TAHLILI .....	187-194

<i>Pirnazarov Nurnazar</i> TANA, RUX VA MA'NAVİYATNING INSON BORLIG'IDAGI AKS ETISHINING FALSAFIY TAHLILI.....	195-201
<i>Ismailov Dilshod Baxriddinovich</i> DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MA'NAVİY-AXLOQIY SEGMENTI:KOMPARATIV YONDASHUV .....	202-209
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Yuldoshova Shaxnoza Azimboyevna</i> RAY BREDBERI VA ISAJON SULTON ASARLARIDA MA'RIFATPARVARLIK MOTIVLARI TALQINI .....	210-216
<i>Bozorbekov Ahmadbek</i> O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA TEXNIK, ZAMONAVIY LOGISTIKA SOHASIDAGI TERMINLARNING YASHALISH MODELLARI VA PARADIGMATIKASI .....	217-230
<i>Xamrayev Fozilbek Yo'ldoshevich</i> ZAMONAVIY O'ZLASHMALARNI MILLIYLASHTIRISHDA O'ZBEK TILINING TARIXIY ZAXIRA MANBALARIDAN FOYDALANISH .....	231-236
<i>O'tebaeva Dilbar</i> TURKIY TILLARGA UMUMIY BO'LGAN EKOLOGIK ATAMALAR .....	237-242
<i>Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna</i> EPIK KLISHELAR HAMDA ULARNING INGLIZ VA NEMIS TILLARIDAGI TALQINI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) .....	243-247
<i>Kadirova Zaynab Bakoyevna</i> INGLIZ TILIDAGI REKLAMANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI .....	248-252
<i>Allaberganova Nilufar Matnazar qizi</i> QOFIYA ASOSLARIDAGI MATNLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI .....	253-256
<i>Nabiyeva Rushana Jamol qizi</i> OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NOMLARI LEKSIK-SEMANTIK GURUHINING MA'NOVIY GURUHLARI VA ULARDA YANGI O'ZLASHMALARNING ISHTIROKI HAQIDA .....	257-262
<i>To'rayeva Iroda Sheramatovna</i> FOLKLORIZMLAR TIZIMIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLARNING O'RNI VA SPETSIFIKASI .....	263-268
<i>Qodirova Munisa Erkinjon qizi</i> BADIY MATNDA QO'LLANILGAN SAN'ATGA OID TERMINLARNING LEKSIK TIPOLOGIYASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	269-272
<i>G'aniyeva Nozanin G'ayratovna</i> MARKAZIY OSIYODA JADID AYOLLARINING PATRIARXAL TUZILMALAR VA MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI CHIDAMLILIGI VA QARSHILIGI .....	273-277
<i>Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna</i> TURKIY ADABIYOTDA "IBROHIMI ADHAM" QISSALARI TAHLILI .....	278-284
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> ALISHER NAVOIYNING "ARBA'IN" ASARIDAGI HADISLAR BAYONIDA G'OYAVIY-BADIY IFODA MUKAMMALLIGI .....	285-292
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA OVRUPO MADANIYATI TALQINI .....	293-298



**12.00.00 – YURIDIK FANLAR***Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna*

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HUQUQIY TIZIMLARIDA KODEKSLASHTIRISH

JARAYONINING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI ..... 299-306

*Узакова Гўзал Шариповна*

ШАҲАРЛАР ВА БОШҚА АҲОЛИ ПУНКТЛАРИДА АТРОФ МУҲИТНИ МУҲОФАЗА

ҚИЛИШНИНГ ЭКОЛОГИК-ҲУҚУҚИЙ ТАЛАБЛАРИ ..... 307-325

*Пулатова Нодирахон Собиржонова*

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ УСТРАНЕНИЯ СУДЕБНЫХ ОШИБОК В ОБЕСПЕЧЕНИИ

ПРАВ ЧЕЛОВЕКА ..... 326-332

*Nizamatdinov Kayrat Keunimjaevich*

MOBIL ALOQA XIZMATI KO'RSATISHDA MILLIY ALOQA OPERATORLARINING FAOLIYATINI

HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH ..... 333-341

*Абдурахманова Нодирахон*

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В

ОНЛАЙН АРБИТРАЖАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ..... 342-345

*Vokiyev Jahongir Nurmatjon o'g'li*

TA'LIM OLIH HUQUQINING GENEZISI HAMDA UNING YURIDIK TABIATI ..... 346-356

*Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li*

SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQINI TA'MINLASH MASALALARI ..... 357-368

*Утапов Фурқат*

ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ТОВАР БЕЛГИСИНИНГ ҲУҚУҚИЙ

МАҚОМИ ..... 369-374

*Dilboboyev Nozimbek Shavkat o'g'li*

XALQARO VA MILLIY DARAJADA INVESTITYA QONUNCHILIGINING RIVOJLANISH

TENDENSIYASI ..... 375-381

*Назарова Марҳабо*

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И РАЗВИТИЕ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В

УЗБЕКИСТАНЕ ..... 382-386

*Абулхайров Рустамхон Ибодуллаевич*

ПОРТЛАШ СОДИР БЎЛГАН ЖОЙНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎТКАЗИШ

МАСАЛАЛАРИ ..... 387-400

*Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи*

ВОПРОСЫ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ БЫВШИХ ОСУЖДЕННЫХ В НЕКОТОРЫХ

МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТАХ..... 401-406

*Abdikhakimov Islombek*

LEGAL RELATIONS AND STAKEHOLDERS IN QUANTUM TECHNOLOGIES REGULATION: A

COMPREHENSIVE ANALYSIS OF GOVERNANCE FRAMEWORKS ..... 407-412

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI***Djabbarova Nilufar Baxtiyarovna*

TALABA-QIZLARDA LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FALSAFIYPEDAGOGIK

YONDASHUVLARNING ROLI ..... 413-417

<i>Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich</i> BO'LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI ADABIY ASARLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA DEBYUT MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI .....	418-423
<i>Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna</i> HOFIZ XORAZMIY DIDAKTIK QARASHLARINI O'RGANISHNING HOZIRGI HOLATI .....	424-429
<i>Ismoilova Shodiyaxon Xusanboy qizi</i> NEMIS TILIDAN KEYIN INGLIZ TILI O'RGANISH JARAYONIDA FONETIK INTERFERENSIYANI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR .....	430-435
<i>Salimov Ma'ruf Eshdovlat o'g'li</i> O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	436-439
<i>Палванова Умида Бахрамовна, Тургунов Собитхон Ташпулатович, Якубова Азада Ботировна</i> ОРГАНИЗАЦИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ОБУЧЕНИЕМ СТУДЕНТОВ НАВЫКАМ ОКАЗАНИЯ ПЕРВОЙ ПОМОЩИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА .....	440-444
<i>Rasulova Fotima Farxotovna</i> O'QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA YO'NALTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY YO'NALISHLARINING ILMIY TAHLILI.....	445-450
<i>Saidxo'jayev Muhammadxo'ja Ma'rufxo'ja o'g'li</i> YOSHLARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYALASHDA IJTIMOY - PEDAGOGIK OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	451-456
<i>Utepbergenov Aydos Janabayevich</i> SAHNA NUTQI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	457-461
<i>Nozima Muqimovna Hamdamova</i> MAJBURIY FANLARDAN TALABLARNING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLARIDAN FOYDALANISH.....	462-467

**08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES****Received:** 30 July 2024**Accepted:** 5 August 2024**Published:** 15 August 2024*Article / Original Paper***ANALYSIS OF INFLUENCING FACTORS ON INCREASING THE EXPORT POTENTIAL OF SMALL BUSINESSES****Rakhimov Tukhtabek Jumaboevich**

Head of the Department of Economics, Urgench State University, Doctor of Philosophy in Economic Sciences, Associate Professor.

Email: tuxtabek.r@urdu.uz

**Abstract:** In this paper describes the need, significance and directions of factors influencing the export potential of small businesses.

Key words: Small business, export, enterprise, export potential, product, efficiency.

**KICHIK BIZNES KORXONALARINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI****Raximov To'xtabek Jumaboyevich,**

Urganch davlat universiteti, Iqtisodiyot kafedrasini mudiri, PhD, dotsent.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik biznes korxonalarining eksport salohiyatini oshirishning zarurati, ahamiyati va unga ta'sir qiluvchi omillarning yo'nalishlari yoritilgan.**Kalit so'zlar:** Kichik biznes, eksport, korxonalar, eksport salohiyati, mahsulot, samaradorlik.DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I8Y2024N09>

**Kirish.** Zamonaviy jahon iqtisodiyotida barqaror o'sish, tarmoqlar taraqqiyoti va aholi farovonligini ta'minlashda kichik biznes korxonalarini muhim rol o'ynaydi. Global resurs taqchilligi va tashqi omillar ta'siri kuchaygan sharoitda, innovatsion rivojlanish, eksport salohiyatini oshirish va malakali kadrlar tayyorlash dolzarb masalaga aylanmoqda.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jadallashayotgan bir paytda, kichik biznesning eksport salohiyatini kuchaytirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Shu bois, dunyo mamlakatlari iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida kichik biznesni rivojlantirish, qulay tadbirkorlik muhitini yaratish va hududiy infratuzilmani takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning muhim yo'nalishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng miqyosda rivojlantirishdir. Bu soha taraqqiyoti uchun samarali iqtisodiy faoliyat tashkil etish va foyda olishni yo'lga qo'yish zarur. Shuningdek, tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish, xususan eksport va import faoliyatini yo'lga qo'yish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishlar yangi imkoniyatlar sifatida qaralmoqda va iqtisodiy

rivojlanishning muhim omillari hisoblanadi. Bu borada mamlakatimiz eksport salohiyatini kengaytirish, eksport qiluvchi tashkilotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, raqobatbardosh eksport mahsulotlari ishlab chiqarishning ko'paytirilishini rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5587-son Farmoni [1] qabul qilindi. Ushbu farmon va boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muhim uslubiy vosita sifatida xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Darhaqiqat, eksport mahsulotlarni xorij, ya'ni chet elga chiqarish bo'lib, u o'z ichiga mahsulotlarni sotish, yetkazib berish, jo'natish hamda xizmatlarni ham ana shunday shaklda amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Eksport - chet ellik xaridorga tovarlarni sotuvchining mamlakatidan olib chiqib ketish yoki tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni va intellektual faoliyat natijalarini) qayta import qilish majburiyatisiz davlat bojxona hududidan olib chiqishdir [2].

Mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishining hozirgi tendentsiyalari noresurs eksport ulushining ortishi va eksport faoliyatini diversifikatsiya qilish bilan bog'liq bo'lib, xizmatlar eksportini qo'llab-quvvatlashda namoyon bo'ladi [3]. Import esa eksportga zid tushuncha bo'lib, mahsulotlarni boshqa mamlakatlardan olib kelish, ya'ni respublikamizga kiritib, sotish, olib kirish va oxir-oqibatda aholining iste'mol ehtiyojlarini qondirishdan iborat bo'ladi. Ushbu eksport va import tushunchalari bozorning talab va taklif tushunchalari, unsurlariga o'xshab, bir-birini to'ldiradi hamda bozor muvozanatiga o'xshab to'lov balansini shakllantiradi. Shu bois, to'lov balansini eksport va import tarkibidan iborat bo'ladi. Bu borada eksport va import munosabatlari kichik korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatni asosini tashkil etadi.


Korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyati - xalqaro ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy hamkorlik, mahsulot eksporti va importi, korxonaning tashqi bozorga chiqishi bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyat sohasidir [4].

Iqtisodiyot barqaror rivojlantirishda kichik biznes korxonalarini eksport salohiyatini oshirishni ta'minlaydigan xorijiy va MDH mamlakatlari olimlarining ilmiy ishlari natijalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining eksport salohiyati, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va boshqa shu yo'nalishga doir farmon va qarorlari tashkil qiladi. Shu bilan bir qatorda, rivojlangan mamlakatlarda eksportsalohiyatini oshirishda kichik biznes korxonalarining ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish hamda ushbu tajribalarning foydali jihatlarini mamlakatimiz barqaror rivojlantirish maqsadida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, o'tkazilgan tadqiqotning metodologik jihati kichik biznes korxonalarini eksport salohiyatini oshirish omillarini tahlil qilishning innovatsion jihatlarini amaliyotga keng joriy qilish yo'llarini asoslashdan iborat.

**Tahlil va natijalar.** Kichik biznes korxonalarini iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini sifatida tashqi iqtisodiy munosabatlarda faol qatnashib, ularni samarali rivojlantirishda, iqtisodiy munosabatlarni erkin amalga oshirishda ishtirok etadi. Ayniqsa, tashqi iqtisodiy aloqalarning eksport va import munosabatlariga kirishib, mamlakat to'lov balansining mustahkamlanishiga sabab bo'ladi.

Kichik biznes rivojida eksport munosabatlari kichik biznes tufayli ishlab chiqarilgan mahsulotlarni iste'molchilarga realizatsiya qilish, boshqa xorijiy mamlakat sub'ektlariga sotish hamda ishlab chiqargan mamlakatga foyda olib kelishni anglatadi. Eksport munosabatlari tashqi iqtisodiy faoliyatning keng taraqqiy qilishida asosiy omil bo'lib ham xizmat qilib, undagi iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvida yetakchi yo'nalish bo'lib hisoblanadi. Xorijiy

tajribalarga muvofiq, eksport munosabatlari marketing faoliyati va tadqiqotlari natijasida amalga oshiriladi va mamlakatlarga foyda olib keladi. Jumladan, AQShda yillik mahsulotlarni sotish hajmi 25 mln. dollarga teng bo'lgan kompaniyalar marketing byudjetining 3.5 foizga yaqinini marketing tadqiqotlariga sarflaydilar. (1-rasm)



**1-rasm. Kichik biznes korxonalarini barqaror rivojlantirishda eksport salohiyatini oshirish omillari**

Shu bilan birga, kichik biznesning rivojida eksport munosabatlari o'z navbatida eksportning iqtisodiy samaradorligini hisoblashni talab qiladi. Eksportning iqtisodiy samaradorligi mamlakatda ishlatilayotgan tovarni ishlab chiqarish va tashish xarajatlari o'rtasidagi nisbat bo'lib ( $E_e$ ), bu formula  $K_e$  koeffitsient ko'rinishida ifodalanadi:

$$K_e = \frac{E:100}{E_e}$$

Bu yerda,  $E$  - eksport xajmi,  $E_e$  - eksportning iqtisodiy samaradorligi,  $K_e$  - eksport ko'rsatkichi koeffitsienti. Ushbu formula eksport samaradorligining holati va uni kelgusidagi rivojlantirish ko'rsatkichlari hamda baholash uslublarini ifodalaydi.

Darhaqiqat, eksport munosabatlari orqali respublika iqtisodiyotini rivojlantirib, bu kichik biznes sub'ektlari korxonalarini tomonidan amalga oshirib, mamlakat korxonalarida ishlab chiqarilgan milliy mahsulotlarni xorijga chiqarib sotib, daromad olib keladi hamda shu orqali mamlakat davlat byudjetini daromadlar bilan ta'minlashga yordam beradi. Biroq, bu hollarda korxonalarining eksport munosabatlariga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

- ijtimoiy-iqtisodiy muhit. Bunga asosan kichik biznes korxonalarining faoliyati yaxshi rivojlangan va tashkil qilingan bo'lsa, eksport munosabatlari eng samarali taraqqiy etadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy muhitning samarali shakllanishiga mahalliy aholining turmush tarzi, madaniyati, yashash sharoiti va urf-odatlarini ta'sir qiladi.

- raqobat va raqobatchilik sharti. Bu omil kichik biznes korxonalarini samarali tashkil etishda zarur bo'lib, bu eksport munosabatlarida barcha korxonalarining bir-birlariga nisbatan

ustunlikda rivojlanishga intilishini ifodalaydi. Kichik biznes korxonalarida raqobat kuchli bo'lsa, ular tomonidan bozorga chiqarilgan mahsulot o'z vaqtida sotiladi.

- marketing va savdo-sotiq faoliyati. Bu kichik biznes korxonalarining dastlabki taraqqiy qilishida, shuningdek butun iqtisodiy faoliyatida rivojlantirish omili bo'lib xizmat qiladi va ulgurji-chakana savdo faoliyatlari bilan amalga oshiriladi. Ushbu faoliyat o'zaro birgalikda harakatda bo'ladi hamda rivojlanadi. Bunda marketing tizim sifatida ta'minotchilar, raqobatchilar, vositachilar, iste'molchilar va korxonalar yoki firma sub'ektlarining hatti-harakatlarini namoyon etadi.

- sotuvchilar va xaridorlarning hohishi va harakati. Ushbu omillar kichik biznes sub'ektlarining unsuri bo'lib, bevosita ularning ishtiroki orqali iqtisodiy harakatlar: savdo, taqsimot, iste'mol va ayirboshlash kabi xizmat ko'rsatish jarayonlari amalga oshiriladi.


Eksport munosabatlarining yaxshi amalga oshirilishi sotuvchi va xaridorlarning harakati va hohishiga bog'liq bo'ladi.

- davlat siyosati. Mazkur omil orqali davlatning iqtisodiy va boshqaruv siyosati amalga oshiriladi va natijada kichik biznes korxonalarining samarali ishlashiga yetarli shart-sharoit yaratiladi, monopolistik faoliyat va asossiz ravishda narxlarni belgilash tizimi nazorat qilinadi va oxir oqibatda eksport munosabatlarining muvozatini ta'minlaydi. Bu bevosita kichik biznes korxonalarining eksport siyosati va uning samarali tashkil etilishi bilan belgilanadi.

- tashqi muhit, embargo va proteksionizm siyosati. Ushbu omil respublikada faoliyat yuritayotgan kichik biznes korxonalariga xorijdagi iqtisodiy holatlarni aks ettirib, tovar olib kirishni to'liq yoki qisman cheklash bilan namoyon bo'ladi. Shuningdek, kichik biznes sub'ektlari mahsulotlari va xizmatlarining himoya qilishga va xorijda sotishga imkon beradi. Bu omillar eksport imkoniyatlari va salohiyatini ko'rsatuvchi va yoritib beruvchi unsurlar bo'lib sanaladi.

- tadbirkorlik faoliyati. Mazkur omil natijasida kichik biznes faoliyatini amalga oshirish orqali yalpi milliy mahsulot hajmi oshadi, xaridorlar va sotuvchilarning ehtiyojlari optimal darajada qondiriladi, iqtisodiy faoliyat amalga oshiriladi va samaradorlikni oshiradi. Kichik biznes eksport munosabatlarida tadbirkorlik omili mamlakat YAIM o'sish hajmini belgilash, aholini ish bilan ta'minlash va yangi ish o'rinlarini tashkil etishdagi muhim yo'nalish sanaladi.

- narx tizimi. Ushbu omil kichik biznes korxonalarini eksport munosabatlarini tartib solib burib, sotuvchilar va xaridorlar harakatlarini ta'minlovchi tovarlarni ayirboshlash va xizmat ko'rsatish jarayonini boshqaruvchi mexanizm bo'lib ham maydonga chiqadi va uning samarali rivojlanishini ta'minlaydi. Narx tizimi eksport qilinadigan mahsulotlarga o'rnatiladi va bu narx siyosatiga asoslanib o'rnatiladi. (2-rasm)



## 2-rasm Innovatsion yonashuvlar asosida kichik biznes korxonalarini eksport salohiyatini oshirishning asosiy yo'nalishlari

Bozorda katta ulushga ega bo'lish va uni kengaytirish uchun innovatsion mahsulotlar yaratish, iste'molchilarning yangi ehtiyojlarini aniqlash va mahsulotlarning yangi qo'llanish sohalarini o'zlashtirish muhimdir. Mintaqalarda biznes rivojini qo'llab-quvvatlash uchun qulay muhit yaratish, tadbirkorlikka keng imkoniyatlar berish va ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish choralarini ko'rish zarur.

So'nggi yillarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish doirasida tadbirkorlik erkinligini ta'minlash, xususiy mulkni himoyalash va korxonalar faoliyatiga davlat aralashuvini kamaytirish bo'yicha muhim qadamlar qo'yildi. Bu esa tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes korxonalarining eksport faoliyatini tartibga solish omillari quyidagilarni o'z ichiga oladi: kichik biznes muammolarini hal qilish yo'llarini ishlab chiqish, eksport faoliyatini rivojlantirish dasturini tayyorlash, eksport munosabatlarini samarali amalga oshirish mexanizmini yaratish va zarur shart-sharoitlar ta'minlash. Bu chora-tadbirlar mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Demak, kichik biznesning eksport faoliyati mamlakatning iqtisodiy qudratini oshiruvchi muhim omil va uning iqtisodiy taraqqiyot yo'lini belgilovchi ko'rsatkich hisoblanadi.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-noyabrdagi "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5587-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/4085146>

2. Гильяно А.А., Мозолева Н.В. Организация внешнеэкономической деятельности предприятия: учебное пособие [Электронный ресурс]. – Электрон. текстовые дан. (1,1Мб). – СПб.: Издательский центр «Интермедия», 2017. - с.16.
3. Махотаева М.Ю., Бакуменко О.А., Варламов Г.В. Экспорт образовательных услуг vs интернационализация университета: монография. / М.Ю.Махотаева [и др.]. - Псков: Псковский государственный университет, 2019. - с.5.
4. Шашло Н.В. Внешнеэкономическая деятельность предприятия: учебное пособие. / Н.В.Шашло, А.А.Кузубов; Владивостокский государственный университет экономики и сервиса. - Владивосток: Изд-во ВГУЭС, 2017. - с. 11.



# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 8 (4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).